

10 Insonmi yoki farishta?



15:05 / 10.11.2019 4558

Alloh, bu elchi inson bo'lishini, u insonlardan biri bo'lishini, uni insonlar tanib, so'zlarini tushunishlarini xohladi. Agar, elchi farishta bo'lganida, odamlar:

"Bu kim-u, biz kim? U farishta bo'lsa, biz esa inson bo'lsak! Biz yeb, ichamiz. bizning ahlimiz va farzandlarimiz bor. Qanday qilib, Allohga ibodat qilamiz?" deyishadi.

Agar elchi inson bo'lsa, men ham yeb-ichaman, mening ham ahlim va farzandlarim bor. Men esa Allohga ibodat qilaman. Nega sizlar Allohga ibodat qilmaysizlar?" deydi.

Agar elchi farishta bo'lganida, odamlar: "Albatta sen, och qolmaysan va chanqamaysan, kasal ham bo'lmaisan, o'lmaisan va allohga ibodat qilib, uni doim zikr qilasan. biz insonlar, och qolamiz va chanqaymiz, kasal bo'lamiz va o'lamiz, qanday qilib Alloh ibodatini ado etib, uni doim zikr qilamiz?" deyishar edi.

Agar elchi inson bo'lsa: "Men sizlar kabi och qolaman, chanqayman, kasal bo'laman, o'laman va Allohga ibodat qilib, uni zikr etaman. sizlar, nega Allohga ibodat qilib, uni zikr etmaysizlar?", deydi.

Shunda insonlarning so'zları kesilib, biror bahona topa olmaydilar.